

EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR

Mamadjanova Maftunahon Uktamovna,

Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs doktoranti

maftuna.mamadjanova85@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda epitet uslubiy vositasiga ta’rif berish muammosiga bag‘ishlangan. Bu atamaning yagona ta’rifi yo‘q bo‘lib, ko‘plab tilshunos olimlar epitetni trop yoki uslubiy vosita ekanligiga shubha qilishadi. Yagona konsepsiya talqinining mavjud emasligi, epitetni nutqda qo‘llanilishini tavsiflashga imkon bermaydi. Maqolada epitet nazariyasiga o‘zbek, rus va chet el tilshunoslarining bergan ta’riflari keltirilib, ushbu uslubiy vositaning talqini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: epitet, trop, nutq figurasi, uslubiy vosita, semantika, lingvistika.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема определения эпитета в языкознании. Общепринятого толкования термина эпитет не существует, более того, ученые сомневаются, является ли он тропом или просто стилистическим приемом. Отсутствие единого толкования понятия не позволяет охарактеризовать использование эпитета в речи. Целью работы является изучение теории эпитета, в частности трактовки концепта в узбекском, русском и зарубежном языкознании.

Ключевые слова: эпитет, троп, фигура речи, стилистический прием, семантика, языкознание.

Abstract: This article deals with the problem of defining epithet in linguistics. There is no common interpretation of the term epithet, moreover, scientists doubt whether it is a trope or just a stylistic device. The absence of a single interpretation of the concept does not allow to characterize the use of the epithet in speech. The

Published Date:- 17-10-2023

aim of the work is to study the theory of the epithet, in particular, the interpretation of the concept in Uzbek, Russian and foreign linguistics.

Key words: epithet, trop, figure of speech, stylistic device, semantics, linguistics.

Epitet til hodisasi bo‘lib, u haqda juda qadimdan beri ko‘p olimlar o‘zlarining turli-tuman nuqtai nazarlarini bildirishgan. Epitet haqida aytilgan fikrlar qachondan boshlangan ekanligini aniq aytish qiyin. Lekin bu so‘zni ilk bor Aristotel va Kvintilian asarlarida ishlatilganligi haqida ma‘lumotlar bor. Biror bir narsa yoki voqea-hodisaning tarixisiz uning nazariyasini yaratib bo‘lmaganidek, epitet haqidagi qarash va ta‘riflarni qiyosiy o‘rganmay turib, tilimizdagi epitetlarning estetik mohiyati va poetik vazifalarini aniqlash mumkin emas. Shu sababli biz, avvalambor, epitetlar haqidagi turli lug‘at, darslik, izoh va ocherklarda berilgan ta‘riflar haqida to‘xtalib, so‘ngra esa ushbu masalaga doir maxsus ishlar haqida to‘xtalmoqchimiz.

Epitet uslubiy vosita sifatida ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiqot ob‘yekti bo‘lganiga qaramasdan (A.A.Potebnya, V.M.Jirmunskiy, Yu.M.Skrebnev, A.N. Veselovskiy, I.R.Galperin va boshqalar) zamonaviy tilshunoslikda hali ham uni tavsiflash va tasniflash uchun zarur bo‘lgan tushunchalarning yagona tizimi yo‘qligi sababli epitetning aniq bir ta‘rifi mavjud emas. Rus tilshunos olimi V.M.Jirmunskiyning fikricha, “epitet” tushunchasi barqaror emas ya‘ni unga aniq bir ta‘rif bera olmaymiz.¹

Epitetning uslubiy vosita ekanligi borasida ham olimlarning fikri ikkiga bo‘lingan bo‘lib, A.A.Potebnya va Yu.M.Skrebnevlar epitetni uslubiy vosita emas balki fikrga mazmundorlik beruvchi nutq figurasi deb talqin etadilar. Yu.M.Skrebnev epitetni nutqning ekspressivligini oshiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi deb ataydi. Ko‘pincha epitet aniqlovchi yoki hol gap bo‘lagidan tashkil topgan so‘z birikmasidir deb

¹ В.М.Жирмунский. Теория литературы.Поэтика.Стилистика.-Москва.:Либроком,2009.-355С.-464

Published Date:- 17-10-2023

ta’riflaydi.² Bundan tashqari olim epitetda sintaktik cheklovlar bor, ya’ni ega, to’ldiruvchi va kesim epitet vazifasida kela olmaydi degan fikrni ilgari suradi.

Rus tilshunosi A.A.Potebnya esa o’zining “Nazariy poetika” asarida epitet tilda keng tarqalgandir, u uslubiy vosita ya’ni trop emas balki nutq figurasi bo’lib, otni tavsiflab keluvchi aniqlovchidir hamda narsa va hodisalarning aniq bir xususiyatini ko’rsatadi deb talqin etadi. ³Bizning fikrimizcha, A.Potebnya epitetlar narsa yoki voqelikdagi muayyan belgi-xususiyatni alohida ajratib ko’rsatishga xizmat qilishini to’g’ri qayd etib o’tgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni bir guruh tilshunos olimlar(A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, I.R.Galperin, I.V.Arnold va boshqalar) fikrlariga qarama-qarshi deb aytishimiz mumkinki, ularga ko’ra epitet uslubiy vositadir. A.N.Veselovskiyning fikriga ko’ra, epitet “so’zning nominal ma’nosini yangilaydigan, ta’riflanayotgan ob’yektning o’ziga xos xususiyatini kuchaytiradigan aniqlovchidir. Olim epitetning ahamiyatini ta’kidlab, “Epitet tarixi adabiyotdagi she’riy janr tarixidek qadimdir” deb qiyoslab ta’rif beradi.⁴

V.M.Jirmunskiy o’zining “Epitet borasida”(К вопросу об эпитете) asarida epitetni ob’yektga yangi xususiyat kiritish tamoyiliga ko’ra, uni keng ma’noli va tor ma’noli epitetlarga ajratadi. Keng ma’noli epitetlar yordamida ta’riflanayotgan predmetga yangi xususiyat beriladi va uning mazmuni boyitiladi. Tor ma’noli epitetlar esa ta’riflanayotgan so’zga yangi xususiyat kiritmaydi, balki aniqlanayotgan tushunchaning doimiy, tipik belgilarini tasvirlaydi. Olimning xulosasiga ko’ra, epitet so’zning ma’nosiga bezak beruvchi, uning bo’yoqdorligini oshiruvchi uslubiy vositadir. ⁵

²М.Д. Кузнец.,Ю.М.Скребнев. Стилистика английского языка:пособие для студентов.-Л.:Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР,1960.-13с-175

³ А.А.Потебня. Теоритическая поэтика.-Москва.:Академия,2008.-165с-373

⁴ А.Н.Веселовский. Историческая поэтика.-Москва.:Высшая школа,1989.-59с-405

⁵ В.М.Жирмунский. Теория литературы.Поэтика.Стилистика. - Москва.: Либроком, 2009. -358с-464

Published Date:- 17-10-2023

Zamonaviy nemis filologlari T.A.Burkova, N.M.Naerlar epitetni soʻzni aniqlaydigan, uni hissiy jihatdan boyitadigan aniqlovchidir deb taʼriflaydilar.⁶

Rus tilshunos olimi I.R.Galperin esa epitetni “taʼriflanayotgan hodisaning alohida, oʻziga xos sifatlarini ajratib, uni soʻz yoki soʻz birikmalari orqali sifatlab beruvchi” uslubiy vositadir deydi.⁷ Galperin epitetning subyektivligini taʼkidlab, unda emotsional boʻyoq va ekspressivlik mavjudligini aytib oʻtadi. Shu bilan birga, epitetning ekspressiv maʼnosi soʻzdagi yagona maʼno sifatida yoki subʼyektning mantiqiy maʼnosi bilan birga ikkinchi darajali maʼno sifatida ham mavjud boʻlishi mumkinligini izohlab oʻtadi.

V.I.Korolkovning fikriga koʻra esa, epitet-bu biror bir narsaning sifatlash vositasi orqali obrazli ifodalanishi boʻlib, u ikki turdan tashkil topgandir. Bular zaruriy va bezovchi epitetlar deb ataladi. Shu bilan birga olim oʻz izohlarida oddiy aniqlovchi bilan epitet oʻrtasidagi farqni koʻrsatib berishga harakat qiladi. V.I.Korolkovning yozishicha, aniqlovchi bilish nuqtai nazaridan narsa belgisining bir jihatini ifodalaydi, ammo uning mazmuniga qoʻshimcha maʼno yuklash vazifasini bajarmaydi. Masalan, qoʻngʻir ot deyilganda, otning faqat qoʻngʻir rangi nazarda tutilmoqda, yaʼni mantiqiy tasnif amalga oshirilmoqda. Aksincha, epitetda esa narsa yoki hodisaning oʻzigagina xos belgi va xususiyatlari kuchaytirib taʼkidlanadi. Shu sababli, epitet obraz yaratishda ijodkor uchun ham juda qoʻl keladi⁸.

Nazarimizda, epitetni aniqlovchidan bunday tarzda farqlashga urinish ilmiy mantiqqa ziddir. Buning uchun, avvalo, “epitet” va “aniqlovchi” atamalarini qanday matnda qoʻllash lozimligini aniqlab olish zarurdir. Agar badiiy matnda narsa yoki hodisaning biron-bir alohida sifati taʼkidlansa, oddiy aniqlovchi ham epitetga

⁶ Т.А.Буркова. *Stilistik der deutschen Sprache. Стилистика немецкого языка: Учебно-методическое пособие.* – Уфа, 2002. -60с-124, Н.М.Наер. *Стилистика немецкого языка: учеб. пособие.* - Москва.: Высшая школа, 2011. - 233с-271

⁷ И.Р.Галперин. *Очерки по стилистике английского языка.* – Москва.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. - 139с-460

⁸ Краткая литературная энциклопедия . Т8.-М.: Советская энциклопедия. -1975. –С.921-923.

Published Date:- 17-10-2023

aylanadi. Aksincha, ayni shu so‘z ikkinchi bir so‘zning muayyan belgisini ifodalasa va aniq poetik maqsadni nazarda tutmasa, u holda sifatlovchi so‘z aniqlovchi deb yuritiladi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, “aniqlovchi, sifatlovchi” atamalari ilmiy termin bo‘lib, ular lingvistikaga tegishli bo‘lsa, epitet esa poetika va badiiylilik atamasi bo‘lib, u adabiyotshunoslikka mansubdir.

Yuqoridagi ta’riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, epitet ham adabiy uslubda, ham so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladigan uslubiy vositadir. Ushbu tushunchaga berilgan barcha ta’riflar alohida e’tiborga loyiqdir, chunki eng aniq talqinni topish uchun tilshunos olimlar ta’riflarida aks ettirilgan barcha muhim tafsilotlarni hisobga olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. A. Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov. O‘zbek tili stilistikasi.- Toshkent.1983.-bet 248.
2. А.Зеленецкий.Эпитеты литературной русской речи.-Москва.1913.-стр. 214.
3. А.Н.Веселовский. Историческая поэтика.-Москва.1989.- стр.404.
4. A.Reum. A Dictionary of English Style. -Leipzig. 1931.-P.125.
5. Б.В.Томашевский. Стилистика и стихосложение.- Ленинград.1959.- стр. 538.
6. В.А.Малаховский. Эпитет Тютчева.-Чита.1922.- стр.280.
7. Л.И.Тимофеев. Краткий словарь литературоведческих терминов.- Москва.1963.- стр.192.
8. E.Partridge. A Dictionary of Cliches.-London.1950.-P.98.
9. I.R.Galperin. Stylistics.- Moscow.1974.-P.154.
10. Ю.М.Скребнев. Основы стилистики английского языка.- Москва.2003.- стр.116.

Elektron va internet manbalari:

1. philology.khsu.ru.
2. <http://www.referat.ru> .

Published Date:- 17-10-2023

3. http://www_englishbiz.co.uk.htm
4. <https://literarydevices.com/epithet/>
5. <https://www.masterclass.com/articles/what-is-epithet>
6. <https://examples.yourdictionary.com/examples-of-epithets.html>
7. <https://literaryterms.net/epithet>
8. <https://7esl.com/epithet>
9. <https://www.britannica.com/art/epithet>
10. <https://study.com/academy/lesson/epithet-in-literature-definition-examples.html>